



MAMLAKATDA IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING AMALIY JIHATLARI

Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna

Renessans ta'lim universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotation. Maqolada mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining amaliy jihatlari tahlil qilinib xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so`zlar: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yashil iqtisodiyot, YaIM, qo'shilgan qiymat, barqaror iqtisodiy rivojlanish, aholi jon daromad.

Аннотация. В статье анализируются практические аспекты социально-экономического развития страны и делаются выводы.

Ключевые слова: социально-экономическое развитие, зеленая экономика, ВВП, добавленная стоимость, устойчивое экономическое развитие, доход на душу населения.

Abstract. The article analyzes the practical aspects of the country's socio-economic development and draws conclusions.

Keywords: socio-economic development, green economy, GDP, added value, sustainable economic development, per capita income.

1.Kirish

O'zbekistonda inklyuziv o'sishni rivojlantirishni baholash doirasida mazkur paragrafda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda Inson taraqqiyoti indeksini O'zbekiston misolida tahlilini ko'rib chiqamiz.

O'zbekistonning inklyuziv rivojlanishini tahlil etishda dastlab iqtisodiy ko'rsatkichlar orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan YaIMning o'sishi hamda uning aholi jon boshiga taqsimotini tahlil qilamiz.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish, shu asosda respublikamiz fuqarolarining munosib turmush kechirishlarini ta'minlash maqsadida muhtaram Yurtboshimiz rahnamoligida har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi va buning samarasi o'laroq so'nggi yillarda barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishib kelayotganligimizni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Chunki O'zbekistonda 2004-2014 yillar davomida, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozigacha va undan keyingi yillar mobaynida YaIMning o'rtacha yillik o'sishi 8,1 foizni tashkil etgani dunyoning sanoqli mamlakatlaridagina qayd etilgan noyob hodisa bo'ldi. [1]

2.Adabiyotlar sharhi

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining amaliy jihatlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishning sifat jihatlarini o'rganishga A.Smit, D. Rikardo, J. Mill, J. Shumpeter kabi iqtisodchilarning asarlarida juda katta e'tibor berilgan. Turli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli nazariy va amaliy jihatlarini faol o'rgangan xorijiy tadqiqotchilar orasida M.Abramovis, R.Barro, J.Vang, C.Grilixes, M.Daylami, D.Jorgenson, A.Dhareshvar, V.Easterly, D.Kaufmann, J.Kendrick, R.Levin, R.Lopez, M.Mlachila, R.Ranieri, D.Rodrik kabilarning ilmiy tadqiqotlari ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari iqtisodchi olimlardan S.V.Chepel, A.K.Bedrinsev, A.V. Vahobov, N.F.Mo'minov, G.K.Saidova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

3.Metodogiya.

Mazkur maqola tadqiqoti davomida ilmiy sharhlash, nazariy va statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, kuzatish, tizimlashtirish, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

3.Tahlil va natijalar

Albatta, iqtisodiy o'sishning o'zi birdan-bir maqsad emas, lekin u aholining umumiy turmush darajasi – o'rtacha umr ko'rish davomiyligining o'sishi, sifatli tibbiy xizmat va ta'limning omma imkoniyati doirasida bo'lishi, ish kuni davomiyligining qisqarishi, fuqarolar xavfsizligi va boshqalar bilan mustahkam bog'liq. Mamlakatimizdagi ijtimoiy farovonlik va rivojlanishning bugungi kundagi holati haqida gap ketganda, Buyuk Britaniyaning nufuzli The Legatum Institute tahliliy markazi tomonidan har yili chop etiladigan "Taraqqiyot indeksi"ning 8 ta yo'nalish – iqtisodiyot, tadbirkorlik, boshqaruv, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, shaxs erkinligi, ijtimoiy kapital bo'yicha baholanadigan 2010 yildagi reytingida O'zbekiston dunyoning 142 ta mamlakat ichida 76-pog'onani egallagan bo'lsa, 2014 yilga kelib 19 pog'ona ilgarilab, 57-o'rinni zabit etdi.[2] 2012-2021 yillardagi O'zbekistonda YaIMning hajmi o'sish tendensiyasini qayd etganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2012 yilda mamlakatning YaIM hajmi joriy narxlarda hisoblanganda 127 590,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich 5 yillik davrdan so'ng, ya'ni 2016 yilda 206 foizga yoki 2 barobardan ortiqqa o'sib, real hajmda 255 421,9 mlrd. so'mni tashkil etgan. E'tiborlisi, 2016 yildan keyin "iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflayatsiyani proqnoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi" hamda mazkur islohotlar samaralida YaIMning real hajmida o'sish kutiganidan ko'ra yuvoriga tomon o'sish tendensiyasini qayd etgan. Jumladan, 2017 yilda YaIM hajmi mamlakatimizda 317 476,4 mlrd o'smni tashkil etgan bo'lsa, oradan besh yildan so'ng, ya'ni 2021 yilda mazkur makroiqtisodiy ko'rsatkich 734 587,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Tahlillar asosida ta'kidlash mumkinki, so'ngi besh yil

davomida, ya'ni 2021 yilda YaIMning hajmi 2017 yilga nisbatan 231,3 foizga, boshqacha aytganda 2,3 barobarga oshganligi inklyuziv mitsishni ta'minlashdagi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'ldi.

1-jadval

O'zbekistonda aholi soni va YaIM hajmining aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti to'g'risida ma'lumot [3]

Yillar	Aholi soni, ming. kishi	Aholi sonining o'sish sur'atlari			YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti, mln so'mda	YaIMning aholi jon boshiga taqsimoti o'sish sur'atlari		
		Real sonlari	Yildan yilga, %	Bazis yilga nisbatan, %		Real sonlari	Yildan yilga, %	Bazis yilga nisbatan, %
2012	29555,4	hisob yili	hisob yili	bazis yil	4,317	hisob yili	hisob yili	bazis yil
2013	29993,5	438,1	111,5	1,5	5,111	0,794	118,4	118,4
2014	30492,8	499,3	111,7	3,2	6,127	1,016	119,9	141,9
2015	31022,5	529,7	111,7	5,0	7,135	1,008	116,5	165,3
2016	31575,3	552,8	111,8	6,8	8,089	0,954	113,4	187,4
2017	32120,5	545,2	111,7	8,7	9,884	1,795	122,2	129,0
2018	32656,7	536,2	111,7	10,5	13,006	3,122	131,6	130,1
2019	33255,5	598,8	111,8	12,5	15,919	2,913	122,4	136,8
2020	33905,2	649,7	112,0	14,7	17,761	1,842	111,6	141,4
2021	34558,9	653,7	111,9	16,9	21,256	3,495	119,7	149,4

1-jadval ma'lumotlarida O'zbekistonda aholi soni va YaIM hajmining aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti aks ettirilgan. Unga ko'ra, 2012 yilda aholi soni 29 mln 555 ming nafardan ortiq bo'lgan. Mamlakatimizda aholining doimiy o'sish sur'atlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan 10 yil davomida o'rtacha 1,5 foizdan ortiqqa yildan-yilga o'sgan yoki har yili o'rtacha doimiy aholi soni 500,35 ming nafardan oshib borgan. Bazis yilga nisbatan aholi sonining o'sishi 2018 yildan keyin faol tarzda ortgan. Ya'ni, 2018 yilda bazis yilga nisbatan aholi soni 10,5 foizga, 2019 yilda 12,5 foizga, 2020 yilda 14,7 foizga, 2021 yilda deyarli 17 foizga o'sganligini tahlillarda ko'rish mumkin. Inklyuziv o'sish ko'rsatkichlaridan hisoblangan – YaIMning aholi jon boshiga nisbatan taqsiomti borasida 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 5,111 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 21,256 ming smo'ni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, o'tgan 10 yil davomida YaIMning aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti bazsi yilga nisbatan 2021 yilda 49,4 foizga yoki real hajmda 16,939 ming so'mga ortgan. Aytish kerakki, bazsi yilga nisbatan va real hajmda ham YaIMning aholi jon boshiga pandemiya davrida ham muntazam o'sib borganligi (2019 yilda 15,919 ming so'm, 2020 yilda 17,761 ming so'm, 2021 yilda 21256 ming so'm) mamlakatimizda aholi farovonlik darajasi borasida inklyuziv o'sish sur'atlari qoniqlidir.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan aholi ulushi [4]

Ko'rsatkichlar nomi	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Kam ta'minlangan aholi ulushi, foizda*	15,0	14,1	13,3	12,8	12,3	11,9	11,4	11,0	11,5	11,3
Kambag'allik darajasi, foizda umumiyl aholiga nisbatan**	-	-	-	-	-	-	-	-	-	17,0

Inklyuziv o'sishda hisobga olinadishgan jihatlardan – kam ta'minlangan aholi va kambag'allik darajasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan -jadvalda O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan aholi ulushi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Unga asosan, 2012 yilda mamlakatimizda 15,0 foiz aholi kam ta'minlangan aholi hisoblangan bo'lsa, yillar davomida mazkur ko'rsatkich qisqarib borgan. Ya'ni, ushbu ko'rsatkich 2021 yilga kelib, 2012 yilga nisbatan 3,7 foizga qisqarib, 11,3 foizni tashkil etgan. Albatta,

amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, shu jumladan kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangicha mexanizmda faoliyati yo'lga qo'yilgan "mahallabay" ishlash tizimi orqali umumiy aholi sonida kam ta'minlanganlarning ulushini qisqartirib, ularning farovonligini, pirovardida inklyuziv o'sishga erishish rag'batlantirilmoqda.

Yuqoridagi jadvalda shuningdek, respublikamizda kambag'allik darajasi ham ifodalangan bo'lib, aytish kerakki, "Kambag'allik yurtimizda ko'p yillar "yopiqmavzu" bo'lib, avvallari bu kategorianing o'rniga yumshatish qabilida "kam ta'minlanganlik" tushunchasi bilan almashtirib kelingan edi. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo'yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va keljakda bartaraf etish haqida yuksak minbarlarda ham ochiq-oydin gapirilmoqda. Xususan mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning joriy yilning 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Murojaatnomada ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob- kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlarini nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirdorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinnari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish [5], demakdir". Keltirilgan jadvalda O'zbekistonda ilk marotaba kambag'allik darajasi o'lchanib, 2021 yilda umumiy aholi soniga nisbatan 17 foiz ekanligi e'lon qilingan.

Bu borada, professor Sh.Mutafaqulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kambag'allikni hisoblash ikki bosqichda amalga oshirilishi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lib, birinchisi, kambag'allikni aniqlash hisoblanib, unda ushbu toifaga mansub bo'lganlarni xalqaro va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olib ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalanish ta'kidlangan. Ikkinci usulda kambag'allik hajmini, ya'ni qiyamatini keltirib chiqarish va ularga davlat tomonidan manzilli yordam ko'rsatishga e'tibor qaratilgan bo'ladi. [6]

10-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida kambag'allikni aniqlash bo'yicha keng tarqalgan usullar xususida bat afsil to'xtaladigan bo'lsak, bularni monetar va nomonetar usullarga bo'lishimiz mumkin. Monetar uslub iste'molchilar, uy xo'jaliklarning ma'lum bir muddatda oladigan barcha daromadlari yoki o'z ehtiyojini qondirish uchun sarflaydigan iste'mol xarajatlari hajmi, ya'ni turmush darajasini belgilaydigan material ehtiyoj bilan o'lchanadi. Bunda kambag'allikni o'lchashning ko'p qirrali (KQK) ko'rsatkichidan keng foydalaniladi va ular qaysidir ma'noda o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ushbu ikki ko'rsatkich qulay instrument sifatida o'zini namoyon etadi va davlat

tomonidan iqtisodiy, siyosiy qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, kambag'allikning ko'p qirrali ko'rsatkichi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi ko'magida Oksford universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu metodologiya jahon mamlakatlari kesimida Inson taraqqiyoti indekslarini hisoblashda keng foydalanib kelinadi. Uy ho'jaligining iste'mol xarajatlari orqali kambag'allikni o'lchaydigan uslub esa, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinadi.[6]

3-jadval

Aholi daromadlari to'g'risida ma'lumot [7]										
Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Aholi umumiylar daromadlari, mlrd.so'm	104263,0	126268,0	146392,9	169344,3	197962,4	236893,1	300842,7	365735,6	415085,0	515660,7
o'tgan yilga nisbatan, % da	121,3	121,1	115,9	115,7	116,9	119,7	127,0	121,6	113,5	124,2
Aholi jon boshiga umumiylar daromadlari, ming so'm	3501,8	4175,1	4759,6	5410,6	6215,9	7314,1	9128,6	10891,3	12125,6	14769,0
o'tgan yilga nisbatan, % da	119,6	119,2	114,0	113,7	114,9	117,7	124,8	119,3	111,3	121,8
Aholi real umumiylar daromadlari, mlrd.so'm	97296,6	118029,5	137548,5	160485,5	187517,7	216400,1	255971,0	319336,1	367559,6	465271,8
o'tgan yilga nisbatan, % da	113,2	113,2	108,9	109,6	110,7	109,3	108,1	106,1	100,5	112,1
Aholi jon boshiga real umumiylar daromadlari, ming so'm	3267,8	3902,7	4472,0	5127,5	5887,9	6681,4	7767,0	9509,6	10737,3	13325,8
o'tgan yilga nisbatan, % da	111,6	111,4	107,1	107,7	108,8	107,5	106,2	104,2	98,6	109,9

Inklyuziv o'sish bo'yicha mamlakatning muhim iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlaridan biri – aholi daromadlari hisoblanadi. Aholi umumiylar daromadlarini hisoblashda Davlat statistika hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyatini bo'yicha hamda uy xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarini o'rGANISH bo'yicha tanlama kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Moliya vazirligi, Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlar to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.[6]

Aholining umumiylar daromadlari – yollanib ishlovchilarning mehnat faoliyatidan olgan daromadlari, mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar, shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar, mol-mulkdan olingan daromadlar (foizlar, dividendlar, mualliflik haqi, boshqa mulkiy daromadlar), transfertlardan olingan daromadlar (pensiyalar, nafaqlar, stipendiyalar va boshqa joriy transfertlar) dan iborat.[8]

2012 yilda aholi umumiylar daromadlari 104 263,0 mlrd o'smni tashkil etib, oldingi

yilga nisbatan 121,3 foizga o'sgan bo'lsa, 21 yilda ushbu ko'rsatkich 515 660,7 mlrd so'mni tashkil qilgan. Mazkur yilda oldingi yilga nisbatan aholining umumiy daromadlari 124,2 foizga o'sganligini ko'rish mumkin. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hisoblanganda, 2012 yilda 3501,8 mlrd. so'mdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 14769,0 mlrd so'mni yoki bazsi yilga nisbatan 4 baromabrdan ortiqqa o'sgan. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning tebranishida ham 2019 yilda boshlangan koronavirus pandemiyasining ta'sirini 2019-2020 yillarda yaqqol ko'rish mumkin. Sababi, mazkur yillarda tahlil etilayotgan ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 2019 yilda 119,3 foizga o'sgan bo'lsada, o'sish ko'rsatkichi 2018 yilga nisbatan 5,5 foizga, 2020 yilda esa oldingi yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 8 foizga kam hisobalanadi. Bundan tashqari, aholining real daromadlari hajmi 2021 yilda 97 296,6 mlrd. so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi 113,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 465 271,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bir qarashda mazkur raqam 2012 yilga nisbatan real farqlarda o'sganligini ko'rsatsada, yildan-yilga o'sish ko'rsatkichi bazis yil, ya'ni 2012 yilga nisbatan hamda o'tgan yillarda nisbatan ham aholining real daromadlari hajmining o'sish ko'rsatkichi 2013-2020 yillarda kamayib borganligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi tahlillarning davomida sifatida, iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini tahlil etishda muhim xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ko'rsatkichlardan biri – jini koeffitsienti (Gini index, Gini coefficient) hisoblanadi. jini koeffitsienti (Gini index, Gini coefficient) aholi orasida daromadlar taqsimotini o'lchash uchun qo'llaniladi va 0 (mutlaq tenglik)dan 1 (mutlaq tengsizlik)gacha oraliqdagi son bilan ifodalanadi.

2017 yildan boshlab qaytadan rasmiy ravishda e'lon qilina boshlagan jini koeffitsentida 2020 yilgacha hech qanday o'zgarishlar bo'lmasligi, ya'ni mazkur koeffitsent **0,26 darajani qayd etgan**. Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur koeffitsentning 1 ga yaqinlashishi tengsizlikning yuqori darajasini hamda 0 ga yaqin kelishi tengsizlikning past darajasini ifodalaydi. 2020 yilgi pandemiya mamalakatimizda tengsizlik darajasining oshishiga olib kelgan (yoki tengsizlikning o'sayotganligi statistikada yaqqol ko'zga tashlana boshlagan). Shuningdek, 2021 yildan keyingi davrda jini koeffitsenti pasayib borayotganligini kuzatish mumkin.

Inklyuziv rivojlanishni tahlil etishda mamlakatdagi bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari ham muhim o'ringa ega. Shu munosabat bilan, quyidagi jadvalda 2012-2021 yillarda O'zbekistonda bandlik va ishsizlik darajalari aks ettilgan:

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi	O'zbekistonda 2012-2021 yillarda bandlik darajasi*, foizlarda [9]									
	yillar									
	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
hududlar:	66,6	67,1	67,7	68,2	68,7	69,2	67,4	68,1	66,0	67,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	57,4	57,7	57,9	58,1	58,1	58,3	62,9	62,9	62,0	61,1
Andijon	69,0	69,9	70,8	71,5	72,3	73,0	69,6	70,1	66,5	68,2
Buxoro	74,1	74,4	74,0	73,4	72,9	72,5	70,7	69,3	68,3	67,2
Jizzax	56,0	56,5	57,3	58,1	59,1	60,0	61,6	67,1	66,2	67,5
Qashqadaryo	61,2	61,8	62,5	63,3	64,3	65,4	64,8	63,9	60,9	62,2
Navoiy	74,7	74,1	73,6	73,2	72,8	72,4	69,2	69,5	66,8	68,3
Namangan	57,2	58,1	59,3	60,5	61,9	63,4	63,8	66,4	65,0	65,5
Samarqand	64,7	65,4	66,5	67,6	68,7	69,7	66,3	65,3	63,2	63,7
Surxondaryo	62,3	62,7	63,4	64,3	65,4	66,6	65,2	67,0	63,9	64,5
Sirdaryo	72,2	72,5	72,9	72,2	71,7	71,1	70,5	68,9	64,8	64,5
Toshkent	72,9	74,0	75,1	75,3	75,4	75,2	71,4	71,4	68,2	72,4
Farg'ona	68,0	68,3	68,8	69,1	69,6	69,9	66,0	67,5	65,1	66,2
Xorazm	63,9	64,3	65,0	65,6	66,3	66,9	64,6	66,1	63,7	64,0
Toshkent.sh	80,7	80,7	80,9	81,1	81,0	80,8	77,5	80,1	81,7	81,3

* band aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi soniga nisbati.

4-jadvalda inklyuziv o'sish ko'rsatkichlari doirasida O'zbekistonda 2012-2021 yillarda bandlik darajasi, ya'ni band aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi soniga nisbati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra, 2012 yilda mamlakatimizda bandlik darajasi 66,6 foizni tashkil etgan. Keyingi yillarda, jumladan 2013-2017 yillarda bandlik ko'rsatkichi doimiy oshib borgan. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida ish o'rinnarining muntazam yangidan tashkil etilishi, ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan choralarining samarasini hisoblanadi. Ammo, 2019 yildan boshlangan pandemiya davriga kelib, iqtisodiyotdagi barcha sohalarda kuzatilgani kabi ish bilan ta'minlashda ham salbiy o'zgarishlar yuz berdi. Natijada, bandlik ko'rsatkichi oldingi yillarga nisbatan 1-2 foizga pasaydi. Shu sababli, keyingi yillarda hududlarda yangi ish o'rinnarini yaratish, tadbirdorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish, o'zini-o'zi band qilish tizimini tubdan isloh qilish va samaradorligini oshirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonda 852 mingdan ortiq o'zini o'zi band qilganlar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 310 ming nafardan ziyodrog'i - yoshlardir. O'zini o'zi band qilgan shaxslar – o'z ishini o'zi topib, uni o'zi bajarish orqali daromad ko'radigan jismoniy shaxslardir. Repetitorlar, enagalar, santonxniklar, elektrchilar, sartaroshlar, kurerlar, avtomobil yuvuvchilar, hunarmandlar, farroshlar, tikuvchilar, dasturchilar va yana ko'plab kasb egalari o'zini o'zi band qiluvchilar bo'lishlari mumkin. Ularning faoliyati "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom" [10] bilan tartibga solinadi. 2021 yil 1 avgust holati bo'yicha 68 turdag'i faoliyat bilan o'zini o'zi band qilish mumkin. Xohishga ko'ra, ularning bir nechtasini birvarakayiga tanlash mumkin. O'zini o'zi band qilish faoliyatidan olingan barcha daromadlar jismoniy shaxslar daromad solig'iga (JShDS) tortilmaydi: qancha topsa ham o'zida qoladi. Bir yilda bir marta BHMning 1 baravari - 2021 yilning 1 avgust holatida 245 ming so'm – miqdorida ijtimoiy soliq to'lashning o'zi kifoya qiladi. To'lovni har qanday to'lov tizimi orqali amalga oshirish mumkin. O'zini o'zi band qiluvchilar hech qanday sug'urta va boshqa yig'implarni to'lamaydilar.[11]

4.Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonda inkyuziv rivojlanishga erishish muhim hamiyatga ega. Sababi, rivojlanayotgan davlatlar singari O'zbekistonda ham aholi soni, demografik faollik aholining turmush farovonligini har tomonlama oshirish, ularning iqtisodiy-ijtimoiy manfaatdorligini ta'minlashni taqozo etmoqda.

Inkyuziv rivojlanish indeksi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning umumiy qabul qilingan yangi tizimi sifatida, axborot mazmuni bo'yicha boshqalardan ustun turadi. Kelajakda u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishda ishlataladigan asosiy ko'rsatkichlardan birining o'rnnini egallashi mumkin. Jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiy rivojlanishni baholashning yangi tizimini qabul qilinishi bir qator davlatlarning ichki siyosatini to'g'rilashga yordam beradi, bu esa xalqaro iqtisodiy integratsiyaga, milliy va xalqaro statistika organlarining uslubiy bazasini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. J.Q. Qurbanov. O'zbekistonda yuqori va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlar siyosatining roli. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2016 yil.
http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/32_J_Qurbanov.pdf
2. <http://www.prosperity.com/#!ranking>
3. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>
4. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).
6. Mustafaqulov Sh., Nuriddin M., Rasul X. O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=290&id=1100&Itemid=1000000000000
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=290&id=1100&Itemid=1000000000000
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
<https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.12.2020 yildagi 806-son <https://lex.uz/ru/docs/5182451>
11. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/05/self-employed>.

